1) Barcha tashish turlari uchun haydovchi maosh sarfi. Bir soatlik maosh sarfi m_1 quyidagi formula bilan topiladi.

$$m_1 = \xi * m_y / v_u$$

$$m_y = 1,48 \text{ m}$$

$$m = M / F * K$$

M – haydovchining (bozordagi) oylik maoshi;

F – oylik balans soati 169,2

K – rayon koeffitsienti = 1,15

V_u – ekspluatatsion tezlik 30 km/soat.

2) X_1 -yonilg'i sarfi.

$$X_1 = Y_{o100} / 100 * H_1 * K_2 * \xi \text{ So`m/(km, tkm, y, ykm, to`l km, soat)}$$

K_2 – qish davrini hisobga oluvchi koeffitsient 1,03;

Y_{o100} – 100 km yo`lga yonilg'i me'yori;

N_1 – 1 litr yonilg'i narxi.

3) Moy va moylash materiallari sarfi.

$$X_2 = X_{21} + X_{22} + X_{23} + X_{24};$$

$$X_{21} = M_{100} N_m * Y_{o100} / 100 * \xi;$$

$$X_{22} = T M_{100} N_t * Y_{o100} / 100 * \xi$$

$$X_{23} = S M_{100} * N_s * Y_{o100} / 100 * \xi$$

$$X_{24} = M_{1000} / 1000 * \xi$$

N_m – 1 l moy narxi

M_{100} – 100 l yonilg'i uchun moy sarfi me'yori (2,4 l/100l) 0,024-engil
0,035-avtobus -yuk
avtomabillar uchun

N_t – 1 l transmission moy narxi

$T M_{100}$ – 100 l yonilg'i uchun transmission moy sarfi me'yori (0,03)

N_s – 1 kg solidol narxi.

$S M_{100}$ – 100 l yonilg'i uchun solidol sarfi me'yori (0,03)

M_{1000} – 1000 km probeg uchun mayda lampochkalar materiallar sarfi me'yori

4) Xarakatdagi tarkibni ishlatishga tayyorlash X_3 sarfi.

$$X_3 = X_{31} + X_{32} + m_2;$$

a) X_{31} -extiyot qismlar sarfi

$$X_{31} = M_{exq} / 1000 * K_3 * \xi$$

M_{exq} – 1000 km probeg uchun e'tiyot qism sarfi.

K_3 – yo`l sharoitini hisobga oluvchi koeffitsient.

1 kategoriyali yo`l uchun $K_3 = 1,0$

II va III kategoriyali yo`llar uchun $K_3 = 1,1$

IV va V kategoriyali yo`llar uchun $K_3 = 1,2$

b) X_{32} -material sarfi

$$X_{32} = M_{mat} / 1000 * K_3 * \xi$$

M_{mat} – 1000 km probeg uchun material sarfi

v) m_2 - avtochilangar uchun maosh sarfi;

$$m_2 = 0,9 * m_1 * H_2^1;$$

N_2^1 - bir avtomobilga to'g'ri keladigan avtochilangarlar soni

Engil avtomobil - 0,23

Yuk avtomobil - 0,35

Avtobus - 0,35

0,9-haydovchiga nisbatan avtochilangarlarni oylik maoshi shakllanishi. Bu yuk avtomobili va avtobuslarda 1,2-1,3 olinadi.

5) Avtoshina sarfi « X_4 »

$$X_4 = N_{sh} / l_{sh} * n * \xi$$

N_{sh} – 1 ta shina narxi.

l_{sh} – shinaning xizmat muddati

n – xarakatdagi shinalar soni.

6) X_5 - xarakat tarkibini tiklash sarfi.

$$X_5 = N_b * E_n / D_r * l_{kun} * V_i * \xi$$

N_b – xarakat vositasini balansdagi baxosi.

E_n – 0,15 me'yordagi samaradorlik koeffitsienti.

D_r – yildagi ishchi kunlar soni

L_{kun} – kunlik yurilgan o'rtacha probeg.

7) To'liqsiz tannarx « X_u » topamiz.

$$X_u = m_1 + X_1 + X_2 + X_3 + X_4 + X_5; \quad X_m = X_y + X_6 + X_9;$$

Tuliqsiz tannarxning daromadg'i η_{xu} ni topamiz.

$$\eta_{xu} = 1 - (\eta_6 + \eta_8 + \eta_9)$$

$$\eta_6 = 0.18 - 0.25$$

$$\eta_8 = 0.3 - 0.1$$

$$\eta_9 = 0.04 + 0.02 = 0.06$$

8) Hisobdagi narx D_1 ni topamiz.

$$D_1 = X_u / \eta_{xu};$$

9) Sotuvdagi narx D ni topamiz.

$$D = D_1 * \eta_7$$

$\eta_7 = 1,0$ shahar va shaharoldi avtobuslar uchun

$\eta_7 = 1,2$ qolgan barcha tashish turlarida

10) Yillik jami ish hajmi ΣQ , daromad ΣD ; tannarx ΣX_m ; yalpi foyda ΣX_8 larni topamiz.

$$\Sigma D_1 = D_1 * \Sigma Q$$

$$\Sigma X_m = X_m * \Sigma Q$$

$$\Sigma X_8 = \Sigma D_1 - \Sigma X_m;$$

(yoki ΣL agar $\xi=1,0$ deb olinsa)

$$D=1,2*D_1$$

(shahar, shahar oldida QQS olinmaydi, shuning uchun $n=1,0$ ga teng yoki $D=D_1$ bo'ladi)

3. Tashish ta'riflarining tashish turlariga qarab shakllanishi. Tashish ta'riflari shaharda yo'lovchi uchun oddiy va tez yurar avtobuslarda hisoblab chiqiladi. Yo'nalishdagi taksilar uchun ham bir yo'lovchi uchun hisoblanadi. Lekin bu tashish QQS solig'iga tortiladi. Shuning uchun $D=1,2*D_1$ shaharoldi yo'nalishlarida tashish 1 passajir km uchun oddiy va yumshoq o'rindiqlarga hisoblab chiqiladi. $D=D_1$ QQS yo'q.

Shaharlararo yo'nalishlarda ta'rif 1 passajir km uchun oddiy va yumshoq o'rindiqlarga aloxida hisoblanadi. Bu tashish turi QQS ga tortiladi. Shuning uchun $D=1,2*D_1$

Engil tashishlarda ta'rif 1 to'lovli km uchun hisoblanadi, hamda QQS ga tortiladi. $D=1,2*D_1$

Texnologik jixozlar: Tarqatma materiallar (GM-Uzbekiston) AJ transport bo'limi misolida. Uslubiy ko'rsatma.

Laboratoriya ishi №7

Mavzu: Transport vositasi harakat grafigini tuzish

Laboratoriya ishi maqsadi: Bir atobus yo'nalishida ishlovchi N ta atobusga harakatlanish grafigini tuzishni o'rganish uchun, talaba o'ziga teishli variantdagi yo'nalish gafigini tuzadi

Avtobus, mikro avtobus bilan yo'lovchi tashish ko'rsatkichlari bo'yicha ularning qatnovi sxemasi chiziladi. Sxemada avtobus, mikro avtobus qatnovi boshlang'ich bekat, xar bir bekatlar va yo'llar sxemasini chizib, yo'l belgilari ko'yiladi.

Shahar qatnovidagi ShX-1DAN 2 –shahar kasalliklar shifoxonasi yo'nalishi uzunligi 15,3km. Tushlik 45 minutdan 2 marta. Qatnovlar soni ISUZI 22 ta, Fort 24-ta DAMAS-26 ta qat Ish davomiyligi ISUZI -14 soat. Fort -14 soat DAMAS - 14 soat Avtobus intervali ISUZI - 4 minut, Fortda 5 minut. Damas 3 minut

Avtobusni va mikro avtobusni yunalishdagi vaqti, unda qatnaydigan avtobus bilan yo'l belgilariga amal qilgan xoldagi tezlik bilan me'yorlab topiladi. Oralik bekatlardagi vaqt ISUZI uchun 1,5-1 minut Damas 0,5 Fort 1-minut olinadi.

Shunday qilib:

$$t_{ay} = \Sigma t_{xaray} + \Sigma t_{bekto'x} = (32+10)*2=84 \text{ minut} ;$$

Σt_{xaray} – Me'yorlash orqali topiladi, ushbu yo'nalish bo'yicha qatnovdagi vaqtlar yig'indisi.

$\Sigma t_{bekto'x}$ – bekatlardagi to'xtashga ketgan vaqtlar yig'indisi.

Bu ikkala vaqt ham biron - bir yo`nalishda ishlovchi avtomobilga, qonuniy tezlikni saqlagan xolda amalda o`lchab topiladi.

Aylanma qatnovlar soni Z_{ay} sonini aniqlaymiz.

$$Z_{ay} = T_m / t_{ay} = 16 / 1,4 = 11 ;$$

Z_{ay}^1 –qatnovni , tarkibiy juft, xolda olinadi

Yunalishdagi kunlik bir tomonlama qatnov sonini topamiz.

$$Z_{ayk} = Z_{ay} * 2 = 11 * 2 = 22 \text{ qat};$$

№1 Grafik III X-1 ДАН		№1 Grafik 2 – Shaxar K.SH		№2 Grafik III X-1 ДАН		№2 Grafik 2 – Shaxar K.SH	
keldi	ketdi	keldi	ketdi	keldi	ketdi	keldi	ketdi
5-00	5-03	5-45	5-48				
6-30	6-33	7-15	7-18				
8-00	8-03	8-45	8-48				
9-30	9-33	45 obed	11-03				
11-45	11-48	12-30	12-33				
13-15	13-18	14-00	14-03				
14-45	14-48	15-30	15-33				
16-15	45 obed	17-45	17-48				
19--15	19-18	20-00	20-03				
20-45	20-48	21-30	21-33				
22-15	22-18	23-00	23-03				
23-45	Garaj						

Topshiriq

Var- iant	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
A_c	21	22	23	24	20	19	18	17	16	25	26	27	28	29	30
T_H	14	14	14	14	14	14	14	14	14	14	14	14	14	14	14
t_{ush}	45	45	45	45	45	45	45	45	45	45	45	45	45	45	45
V_T	22	24	22	24	22	24	22	24	22	24	22	24	22	24	22
int	5	5	4	4	6	6	7	7	8	4	4	4	3	3	3
kuti	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3	3

Var- iant	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28	29	30	31
A_c	18	19	20	21	17	16	15	14	13	22	23	24	25	26	27
T_H	14	14	14	14	14	14	14	14	14	14	14	14	14	14	14
t_{ush}	45	45	45	45	45	45	45	45	45	45	45	45	45	45	45
V_T	22	24	22	24	22	24	22	24	22	24	22	24	22	24	22
int	6	6	5	5	7	7	8	8	9	5	5	5	4	4	4
kuti	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5

Texnologik jixozlar: Tarqatma materiallar.Xarakatlanayotgan yo`nalishdagi taksilar misolida (Damas,Gazel) Uslubiy ko`rsatma.

Laborotoriya ishi №8

Mavzu: Shaharlararo yuk tashishni tashkil qilish.

Laborotoriya ishi maqsadi: Shaxarlararo avtotashuvlarni tashkil qilishni o`rgatish.Har bir talaba shaxarlararo avtotashuvlarni nazariy qismdan foydalangan holda tashkil qilish bo'yicha savollarga tayyorlanib aytib beradi.

Nazariy qism: shaxarlararo avtotashuvlar mustaqil respublikamiz xalq xo`jaligini o`sishi, MDXlarni iqtisodiy bog`lanishlarning rivojlanishi, iqtisodiy tumanlar, viloyatlar, va shaxarlarni o`zaro aloqalarni mustaxkamlash uchun asos hisoblanadi. Bu bog`lanishlarni kengaytirishda asosiy ro`lini avtomobil transporti o`ynaydi.

Shaxarlararo yuk atomobillari tashishlarini rivojlantirish, avtotrnasportga salmoqli katta yuk ko`taruvchi avtomobillar va avtopoezdlarni kelib qo`shilishi bilan ifodalanadi, bu bir tomondan avtotransportni boshqa turdagi transportga nisbatan afzalligini ko`rsatadi. Bu afzallik yuklarni etkazishni tezlashtirish, temir yo`l va suv transportiga nisbati yuqori tezlik bilan ifodalanadi. Shaxarlararo tashuvlarda avtotransportda imkoniyatlar katta va yangi liniyalarni tashkil etishda, kam guruxli va ommaviy bo`lmagan yuklarni belgilangan masofalarga tashish tannarxi kam, taqqoslov afzalligi yuqori. Shuningdek, boshqa transportdan foydalanishga qaraganda kayta yuklashni qisqartiradi. Yuk jo`natuvchi omboridan, qabul qiluvchini omborigacha qayta yuklab tushirishlarsiz sxema asosida yetkazadi.

Asosiy afzalligi kam guruxli yuklarni avtotransportda tashish bo`lib, temir yo`li transportiga nisbatan 5-6 marta vaqt kam sarflanadi. Avtotransport bilan 1 t kam guruxli yukni etkazish qiymati temir yo`lga nisbatan 40-60 % cha kam va tez etkaziladi.

Shaxarlararo yuk avtotashuvlariga qo`yiladigan asosiy talablar: mayda guruxli yuklarni jo`natish muntazam yuqori bo`lib ularni bajarish. Shaxarlararo yuk tashishni bajarishda yuk egasi, jo`natuvchi, qabul qiluvchi va avtokorxonalarining majburiyatlari aniqlangan bo`ladi. Yuk egalari, yuklarni tashishga qabul qilish, belgilangan muddatda to`lik ximoyalangan xolda yetkazilish kafolatiga ega bo`lishlari kerak.

Avtotransport nizomining 11,12,13 moddalariga asosan shaxarlararo yuk tashish xukuki asosan jamoat foydalanishidagi avtotransportga yuklatilgan. Xozirgi kunda Respublikadan tashkariga yuk tashish bilan "O`zmejavtotrans", "O`zIntrans" avtokorxonalari shug`ullanadi. Bu tashish turi faqat litsenziya orqali amalga oshiriladi.

YuAB yirik shaxarlarni magistral yo`llarga chikish joylarida shaxarlararo yo`nalishlarni tutashgan maskanlarida o`zlovoy punktlariga, temir yo`l bekatlari, daryo portlarida joylashgan. YuABlar xo`jalik xisobida bo`lib, ularning asosiy vazifasi shaxarlararo yuk tashishga va yuk egasining transport ekspeditsion

operatsiyalarni bajarishga, temir yo'llardan yuklarni so'nggi qisqa masofalarga tashish uchun avtotransportga o'tkazish, yuk egalari bilan yukni qabul qilish va ularni yirik qilib guruxlash, yuk o'luvchiga yetkazish, shuningdek ularni qisqa vaqt omborlarda saqlashdan iborat.

YuAB vazifasi xarakatdagi tarkiblarga TXK va JT lashni tashkil etadi. YoMM lari va boshqa ishlatish materiallari bilan ta'minlaydi. YuAB xaydovchilarni yotishga joy takdim etadi.

Yuqoridagilardan tashqari YuAB :

a) mayda guruxdagi yuklarni guruxlovchi omborlarga qabul qilish va topshirishda yuklash - tushirish ishlarini bajaradi;

b) yuk jo'natuvchilar bilan tashish va transport-ekspeditsiya xizmatlar uchun hisob- kitob olib boradi;

v) boshqa shaxarlardagi YuAB lar va boshqa yuk qabul qiluvchilar bilan aloqani va xisobotlarni amalga oshiradi;

g) xarakatdagi tartiblar qatnov jadvalini va grafigini tuzadi;

d) magistrallarda xarakatdagi tarkib qatnovini nazorat qiladi;

YuAB buyurtmasi asosida, shaxarlararo yuk tashish uchun avtomobil va avtopoezdlarni jamoat avtokorxonalari ajratadi.

Shartnoma shartiga ko'ra avtokorxona majburiyati:

- buyurtmada ko'rsatilgan kungacha, barcha yuklash maskanlariga xarakatdagi tarkib berish;
- yuklash uchun, soz xoldagi sanitar talablarga javob beruvchi xarakatdagi tarkib berish;
- shartnoma yoki buyurtma bo'yicha yukni yo'ldagi saqlanishiga javob berish;
- ishonchli yukni belgilangan maskanga etkazish va uni falokatli shaxsga berish;
- yukni grafik bo'yicha va shartnoma yoki buyurtmada ko'rsatilgan muddatda etkazish;
- shartnoma bo'yicha buyurtmachi-yuk egalari va qabul qiluvchilar majburiyatlari:
- yuklash uchun xarakatdagi tarkib kelguncha yukni tashishga tayyorlash uni taralash va markalash, yo'nalish va yuk qabul qiluvchi bo'yicha guruxlash, tashish xo'jatlarni tayyorlash;
- tashishdan oldin xarakatdagi tarkibni va konteynerlarni yuklashdan oldin berilgan yuk turi uchun ishga yaroqliligini tekshirish;
- yukni xaraktdagi tarkibga shaxsiy kuchi va vositalar bilan yuklash va yuklash-tushirishni maqsimal mexanizatsiya bilan ta'minlash;
- yuklash va tushirish maskaniga kiruvchi yo'llarni ushlab turish, shuningdek yuklash-tushirish maydonlarini soz xolatda, xar qanday xolatda qatnovga xavfsiz va xalakit bermaydigan tashishni ta'minlash, shuningdek avtomobilni erkin manevrlash ishchi joyni yoritish uchun moslamaga ega bo'lish.

Shaharlararo yuk avtotashuvida xarakatdagi tarkibni tanlash.

Shaharlararo yuk tashuvlarida xarakatdagi tarkibni tanlashda bevosita quydagilar hisobga olinadi:

- yuk guruxi (og'irligi va xajmi) o'lchami, butlangan kam jo'natishlar, bir yo'nalishdagi yoki belgilangan maskanlar;
- birga tashish va yetkazish dolzarbligidagi uning imkoniyatlari.

Katta bo'lmagan xajmdagi kam guruxli tashish, bir yo'nalish bo'yicha, ko'pincha yuk guruxlarini butlash, mijozga tezda yetkazish katta yuk ko'tarish orqali vaqtdan yutiladi, shu orqali tashish tannarxi kiskaradi.

Qimmat baxodagi mayda guruxli junatishlar (gazlamalar, tikilgan buyumlar, mex, parfumeriya, galanteriya, priborlar va boshqalar) bevosita kuzov furgonli xarakatdagi tarkiblar bilan tamgalangan xolda jo'natiladi.

Ko'pincha shaxarlararo tashish sharoitlariga (sdelno'e tyagachlar) egarli tyagachlar yarim shatagi mos keladi.

YuAB (yuk avto bosh bekati) yukni jo'natish maskani bo'lib, yuklarga 5 nusxada "Perevoz-naqladnoy" (forma TR-8) yoziladi. 4ta nusxa xaydovchiga, yoki ekspeditor vazifasini bajaruvchiga beriladi, 5 chisi YuABda qoladi, xaydovchi yuk va xujjatlarni olganligiga qo'l qo'yadi. Birinchi nusxa qizil yo'llik bo'lib xaydovchi uni yuk junatuvchiga, yuk junatuvchini material kiymatini uzini xisobidan chikarish uchun yuk junatuvchiga beradi, ikkinchi nusxa ko'k yo'llik bo'lib, xaydovchi uni yuk oluvchiga yuk bilan birga topshiradi. U material qiymatni kirim qilishga asos bo'lib xizmat qiladi. Uchinchi - yashil yo'llik va to'rtinchi - jigarrang yo'llik nusxalar barcha xujjatlashtirishlardan so'ng avtokorxonaga topshiradi va ular avtokorxona va YuAB orasidagi transport xizmati to'lovi uchun asos bo'lib xisoblanadi. Uchinchi nusxa avtomobil xizmat xaqi tulovi xisobga olish uchun avtokorxonadan YuABga yuboriladi. To'rtinchi nusxa yo'l varaqaga ko'shilib avtokorxonada asos bo'lib qoladi.

YuAB yukni yetkazish muddatiga rioya qilish kerak. 200 km gacha masofaga 2 kun, 200dan 400 kmgacha 3 kun. Xar to'liq va to'lik bo'lmagan 25 kmga bir kun qo'shiladi.

Magistrallarda xarakatdagi tarkib qatnovini tashkil etishuchun: shaxarlararo doimiy avtotashuvlardagi jo'natishlarda xarakatdagi tarkib aniq turdagi qatnov va xaydovchilar ish rejimi bo'yicha amalga oshiriladi.

Amaliyotda 2 ta tizimda xarakatdagi tarkibni ishi tashkil etiladi – to'ppadan – to'g'ri boradigan va bo'limli to'ppa-to'g'ri tizimdagi avtomobil qatnovi yukli junatishdan to tavsiya etilgan joygacha yuklab tushirmasdan tashiladi.

Bo'limli tizimdagi qatnovda yo'nalish bulimlarga bo'linadi va yuklar o'zini xududida o'z avtomobillarida tashiladi, keyin xarakatdagi tarkib almashtirilib yukni tushirib olinadi. Qayta yuklash quzovlarini almashtirish orqali amalga oshiriladi. Konteynerlar bir avtomobildan boshqasiga beriladi, yoki bir avtomobil kuzovidan boshqasiga o'tkaziladi.

To'ppa-to'g'ri tizimdagi avtomobil qatnovi uzoq vaqt avtokorxonada bo'lmaydi. Bu avtomobilga texnik xizmat ko'rsatish joriy ta'mir ishlarini bajarishda xaydovchilar ishini murakkablashtiradi; ular uzoq davr yo'lda bo'ladi. Yukni aylanish tezligi sezilarli kamayadi, chunki avtomobil xaydovchini dam olish bilan bekor turib qoladi.

Bo`limli tizimda yukni xarakatlanish tezligi ortadi, lekin yukni bir avtomobildan boshqasiga berish vazifasi paydo bo`ladi, bunga esa yuklash-tushirish ishlarida vaqt ko`p ketadi.

Xarakatdagi tarkibni avtomagistrallarda ko`prok samarali qatnovini tashkil etishda "yukli yelka" tizimi hisoblanadi. Bunday xollarda bor yo`nalish aloxida bo`limlarga - "yukli -elka" ga bo`linadi. Ular orasidagi chegara xizmatini yukli va bo`limli bekatlar xizmat qilib, ularda shatakli yoki yarim shatakli tyagachlar ishlaydi. Tyagach shatakli tizimni tortib o`z chegarasigacha olib kelib qoldiradi va boshqa shataklar, yarim shataklarni olib, orqasiga qarab xarakatlanadi. Biroq "yukli yelka" tizimida xarakatdagi tarkib qatnovini tashkil etishda shatakli zveno egasizlanish muammoni paydi bo`lishidir.

Shaxarlararo yuk avtotashuvlarida xaydovchilar ish rejimi quydagicha bo`ladi: to`ppadan-t`g`ri va bo`limli tizimdagi qatnovlarda xaydovchilarni ish rejimi: yakka, sherikli yoki davrli va smena - guruxli bo`lishi mumkin. Yakka yuradigan xaydovchilar avtomobilga biriktirilgan, u yo`nalishini oxirgi maskaniga xaydab boradi. Bunday ishlarda xarakatdagi tarkib yo`lda ovqatlanish, dam olish va uxlash, texnik xizmat va ta'mirlash va yoqilg`i qo`yishda yokilg`i kuyish jarayonida ko`prok bekor turib qoladi. Xar 3-4soat ishdan so`ng 0,5 - 1 soat, xar 10-12 soatda dam va eng kamida 6 soat uyqu uchun belgilanadi. Yakka tizimda xaydovchilar mexnat sharoiti yomonlashadi, unumsiz vaqt yukotish ortib, yukni etkazish muddati chuziladi, xarakatdagi tarkibdan foydalanish koeffitsenti kamayadi, tashish tannarxi ortadi. Uzluksiz xaydovchini yulda bo`lishi, intensivligi yuqori yo`lda uni kattik charchashga olib keladi, baxtsiz voqea uchun sabab buo`ishi mumkin.

Sherikli yurishda avtomobilda 2 ta xaydovchi bo`lib, ular xar 3-4 soatda almashinishadi. Bitta xaydovchi boshqarib ikkinchisi qabinada maxsus joyda dam oladi. Bunda yakka xaydovchiga nisbatan tashish tezligi o`rtadi, biroq bundagi kamchiliklar, ikkita xaydovchiga to`langan xaq tashish tannarxini orttirib yuboradi, ko`p xaydovchilar olishga tug`ri keladi, TX va JT ishlarini bajarish murakkablashadi.

Smena - guruxli tizimda xaydovchilar ishi butun yo`nalish bo`limlarga bo`linadi, chegaralarda xaydovchilar almashadi. Kamchiligi, xaydovchilar xar xil xarakatdagi tarikibda ishlaydi bu ko`p tarkalmagan.

O`zbekistonda oxirgi vaqtda xarakatdagi tarkib eskiligi sababli 1 ta xaydovchili tizim "O`zshaxarlararotroans"da, " O`zIntrans"da keng tarkalgan.

Nazorat uchun savollar.

- 1.Shaxarlararo avtotashuvlarni afzalliklari nimada?
- 2.Avtokorxona, YuAB, mijozlarni majburiyatlari nimada?
- 3.Shaxarlararo avtotashuvlarda avtomobillar qanday tanlanadi?
- 4.Necha turdagi tashish tizimlari mavjud?
- 5.Xaydovchi qanday ish rejimida ishlaydi?
- 6.Kam guruxli va ommaviy bo`lmagan yuklarni tushuntiring?
- 7.YuAB vazifasi, joylashishi?
- 8.Shaxarlararo yuk xaydovchilariga toshish ish kuni qanday belgilanadi?

9.Shaxarlararo avtotashuvlarga ko'yiladigan talablar?

10.To'ppadan-to'g'ri, smena guruxli tizimlarni o'ziga xos xususiyatlari nimada?

Texnologik jixozlar: Indivudal topshiriqlar bajarish va tarqatma materiallar orqali tahlil qilish. Uslubiy ko'rsatma.

Laborotoriya ishi №9

Mavzu Passajirlar oqimini kuzatish va tahlil qilish

Ishning maqsadi: Passajirlar oqimini kuzatish uchun kuzatiladigan marshrutda ishlovchi barcha avtobuslar ishga chiqariladi, ularni yoniga nazoratchi qo'yiladi. Xaydovchilar yo'nalishda xarakat xavfsizlik qoidalariga to'liq amal qilgan holda ishlaydi. Nazoratchlar kun bo'yi billet sotadi tushgan daromadni kassaga topshiradi. Ular bilan toshilgan yo'lovchi va yo'lkm va o'rtacha yurish masofa topiladi . Talaba quyida berilgan topshiriklardan, o'zini jurnaldagi tartib raqami bo'yicha ma'lumotlarni olib nazariy qismdagi formula bilan **laborotoriya ishini** bajaradi

Marshrutda ishlovchi abtobuslar soni berilgan. Ushbu yo'nalishdagi yo'lovchi oqim aniqlansin.

$$\Sigma P = \Pi_1 * \ell_1 + \Pi_2 * \ell_2 + \Pi_3 * \ell_3 + \Pi_4 * \ell_4 + \Pi_5 * \ell_5 + \dots + \Pi_i * \ell_i$$

$$\ell_{o'r} = \Sigma P / \Pi_1 + \Pi_2 + \Pi_3 + \Pi_4 + \dots + \Pi_i$$

ΣP -jami yo'lovchi oqimi

$\Pi_1, \Pi_2, \dots, \Pi_i$ —№1 dan i gacha bekatlardagi barcha tushgan yo'lovchilar soni

ℓ_1, ℓ_2, ℓ_i -birinchi va i tagacha bekatlar orasidagi masofalar

Laborotoria ishini variantlar bo'yicha topshirig'i.

Variant	O'l. birligi	1 gr	2 gr	3 gr	4 gr	5 gr	6 gr	7 gr	8 gr	9 gr	10 gr	11 gr	12 gr
14 marsh													
chiqish №1	yo'lovchi												
tushish №1	yo'lovchi												
chiqish №2	yo'lovchi												
tushish №2	yo'lovchi												
chiqish №3	yo'lovchi												
tushish №3	yo'lovchi												
chiqish №4	yo'lovchi												
tushish №4	yo'lovchi												
chiqish №5	yo'lovchi												
tushish №5	yo'lovchi												
chiqish №6	yo'lovchi												
tushish №6	yo'lovchi												
chiqish №7	yo'lovchi												
tushish №7	yo'lovchi												
chiqish №8	yo'lovchi												
tushish №8	yo'lovchi												

chiqish №9	yo'lovchi												
tushish №9	yo'lovchi												
chiqis №10	yo'lovchi												
tushis №10	yo'lovchi												
Jami Yo'lovchi	yo'lovchi												
Chipta sotishdan tushum	m.so`m												

Grafiklar bo'yicha chiqib tushgan yo'lovchilar o'zgarishini grafigini chizilsin
Texnologik jixozlar:shahar avtobus yo`nalishlari grafik bo`yicha ishlaydigan avtobuslardagi yo`lovchilarni hisoblash. Uslubiy ko`rsatma.

Laboratoriya ishi №10

Mavzu: Marshrutda ishlovchi avtobuslar soni va harakat intervalini aniqlash.

Ishning maqsadi . Marshrutda (8, 14) ishlovchi avtobuslar sonini aniqlash Talaba quyida berilgan topshiriklardan, o`zini jurnaldagi tartib raqami bo'yicha ma'lumotlarni olib nazariy qismdagi formula bilan **laboratoriya ishni** bajaradi

1.Yo`nalishdagi ish davomiyligi yo'lovchi oqimiga ko'ra kuzatish bilan topiladi:

$$T_m = T_H - (I_H^1 + I_H^{11}) : V_T$$

2.Avtobusni aylanma vaqti t_{ay} formula orqali topiladi:

$$t_{ay} = \sum t_{xar} + \sum t_{chq-tush}$$

Bunda $\sum t_{xar}$ va $\sum t_{chq-tush}$ ga ketgan vaqt DAN talablari asosida svetaforlarga qarab ishlovchi avtobus bilan me'yorlab topiladi

3. Aylanma qatnovlar soni Z_{ay} formula orqali topiladi:

$$Z_{ay} = T_m / t_{ay}$$

Z_{ay} – Aylanma qatnovlar soni 0,5 ortiq bo'lsa birga kam bo'lsa tashlab tuzatish kiritiladi.

4. Yo`nalishdagi ish davomiyligi T_m^1 tuzatishni hisobga olib qayta aniqlanadi.

$$T_m^1 = t_{ay} * Z_{ay}^1 \text{ (soat)}$$

5. Topshiriqdagi vaqtni qabul qilingan qatnovga qarab o'zgarishi:

$$T_H^1 = T_m^1 + t_0 \text{ (soat)} \quad t_0 = (I_H^1 + I_H^{11}) / V_T; \text{ soat}$$

6.Kunlik passajir va pass*km bo'yicha mehnat unimdorligi hamda kunlik o'rtacha masofa

$$\begin{aligned} \Sigma \Pi_{kun} &= (q_H * \gamma_{AB}) * Z_{ay}^1 (n) \\ P_{kun} &= (q_H * \gamma_{AB} * l_{er}^{AB}) * Z_{ay}^1 (n.km) \\ l_{ku} &= l_{n1} + l_{x2} + l_{eg1} + l_{x1} + l_{eg2} + l_{n2} \end{aligned}$$

7. «A₃»yo`nalishga kerakli avtobuslar soni:

$$A_3 = (\Sigma \Pi) / (\Pi_{kun}) \text{ (don)}$$

8.Kerakli ro`hatdagi avtobuslar soni A_C topiladi

$$A_C = A_3 / \alpha_u \text{ (don)}$$

α_u – avtobuslar saroyidan foydalanish koefitsenti 0,8 .

$$\Sigma L_{um} = (l_{n1} + l_{x2} + l_{eg1} + l_{x1} + l_{eg2} + l_{n2}) * \Delta_K * \alpha_H * A_C \text{ (km)}$$

$$\Sigma Z_e = Z_{o6}^1 * \Delta_K * \alpha_H * A_C \text{ (qat)}$$

Avtobuslarning harakat intervali quydagicha topiladi:

$$I = t_{ay} / A_3 \text{ (minut)}$$

Ko'rsatkichlar №1 jadvalga to'ldiriladi

№	Ko'rsatkichlar turi	O'lch birligi	Kunda	Oyda	Yilda
1	ΣT_H^1 topshiriq-dagi vaqt	soat			
2	$\Sigma \Pi_{kun}$ passajir toshish hajmi	pass			
3	ΣP passajir aylanishi	ркм			
4	ΣZ_e bajarilgan qatnovlar	qatnov			
5	ΣL_{um} yurilgan umumiy yo'l	Km			
6	I avtobuslar qatnov intervali	min			

Laborotora ishini variantlar bo'yicha topshirig'i

Variantlar jurnalidagi tartib rakami buyicha talaba tomonidan olinadi.(1-30 lar uchun) Yangi tashkil etiladigan avtobus saroyida yil davomida(Sh 8, SH 14, SH 11) Marshrutlar berilgan Sh 8 1-10 jurnaldagi raqam, SH 14 11-20 jurnaldagi raqam, SH 11 21-30

Avtobuslar soni va xarakat intervali topilsin?

Texnologik jixozlar: Taraqatma materiallar. Uslubiy ko'rsatma

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.B.A.Xo'jaev. Avtomobillarda yuk va pasajir tashish asoslari. Darslik T., "O'zbekiston", 2002 yil
2. Б.А.Ходжаев. Автомобильные перевозки. Т. : "Ўқитувчи", 1991.
- 3.А.В.Вельможин, В.А. Гудков, Л.Б. Миротин, А.В.Куликов.- Грузовые автомобильные перевозки. М.: "Горячая линия - Телеком", 2007.
- 4.Л.Л.Афанасьев, Н.Б. Островский, С.М.Цукерберг- Единая транспортная система и автомобильные перевозки. М.; «Транспорт». 1984

Qo'shimcha.

1. Б.А.Ходжаев- Грузовые Автомобильные перевозки. Т. : "Ўқитувчи", 1984
2. Н.З.Арифжанова, М.Ф.Ёкубов. Автомобилларда юк ва пассажирларни ташиш асоаслари (Масалалар тўплами). Т.: "Фан".2007.
3. Л.И.Палий и З.В Половинникова. Автомобильные перевозки (задачник) М., «Транспорт». 1982